

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**UZAKOVA MA'MURA ABDURAYIMOVNA**

**TURKIY TILLAR OILASIGA MANSUB UCH TILLI ELEKTRON  
TARJIMA UCHUN LINGVO-MATEMATIK MODELLAR VA  
HISOBLASH ALGORITMLARI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va  
dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Uzakova Ma'mura Abdurayimovna**

Turkiy tillar oilasiga mansub uch tilli elektron tarjima uchun lingvo-  
matematik modellar va hisoblash algoritmlari..... 3

**Узакова Мамура Абдурайимовна**

Лингво-математические модели и вычислительные алгоритмы для  
трёхязычного электронного перевода относящихся к тюркским  
семействам..... 25

**Uzakova Mamura Abdurayimovna**

Linguistic-mathematical models and computational algorithms for electronic  
translation related to the Turkic languages family..... 50

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 52

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**UZAKOVA MA'MURA ABDURAYIMOVNA**

**TURKIY TILLAR OILASIGA MANSUB UCH TILLI ELEKTRON TARJIMA  
UCHUN LINGVO-MATEMATIK MODELLAR VA HISOBLASH  
ALGORITMLARI**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va  
dasturlar majmui

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.PhD/T5300 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Nazirova Elmira Shodmonovna  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Muhammadiyeva Dildora Kabilovna  
texnika fanlari doktori, dotsent

Bakayev Ilhom Izatovich  
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" 10 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ~~377~~ raqam bilan ro'yxatga olingan).  
Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" 10 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "18" 10 dagi 31 raqamli ryestr bayonnomasi.)



*M. Musayev*

**M.M. Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

*J.X. Djumanov*

**J.X. Djumanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, professor

*F.M. Nuraliyev*

**F.M. Nuraliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Zamonaviy dunyoda ko‘p tilli elektron tarjimonlariga ehtiyoj doimiy ravishda o‘shib bormoqda. Bunda ehtiyojlarning asosiy sabablari va jihatlaridan biri kompaniyalar xalqaro bozorlarda faoliyat yuritadi va turli mamlakatlardagi mijozlar, hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan tez va samarali muloqot qilishlari kerak. Ko‘p tilli veb-saytlar, marketing materiallari, ko‘rsatmalar, qonuniy hujjatlar to‘g‘ri va tezkor tarjimoni talab qiladi, bu esa shundan dalolat beradiki ushbu tadqiq qilingan ish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ko‘p tilli mashina tarjimonlariga bo‘lgan ehtiyoj nafaqat texnik talab, balki global axborot almashinuvi sharoitida strategik zaruratdir. Bunday tizimlar axborotga kirishni kengaytirish, xarajatlarni kamaytirish, aloqa samaradorligini oshirish va til to‘siqlarini bartaraf etishga yordam beradi. Elektron tarjimonlar yaratish, tabiiy tillarni matematik modellarini takomillashtirish asosida kompyuterlashtirish, omma orasida mukammal bo‘lgan axborot tizimlarini taqdim qilish murakkab masalalardan hisoblanadi. Jahonda yetakchi bo‘lgan AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Kanada davlatlarda kompyuter lingvistikasi ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ushbu ishlarni esa ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mazkur tadqiqot ishning yanada dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahonda klassik nazariyalar bazasi, hamda matematik va funksional tahlilning zarur bo‘limlarini rasmiylashtirish, hisoblash matematikasiga asoslangan zamonaviy dasturlash texnologiyalari asosida teoremlarni isbotlash uchun algoritmik usullarni ishlab chiqish algoritmlashtirishning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Savol-javob tizimlarining algoritmik asoslari tabiiy tilda ma‘lumotlarni manipulyatsiya qilish bilan qurilgan. Bu shuningdek, bir tildan ikkinchisiga o‘tish bilan bog‘liq algoritmik dasturlash muammosi va aqlli tizimlarni yaratish uchun algoritmik asoslarni qurish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Algoritmik banklarda axborot qismlarini to‘ldirish va ularning operatsion qismlari uchun dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek tilining kompyuterli lingvistikasini yaratish va elektron tarjimonlar faoliyatini optimallashtirish dolzarb vazifadir. Bu bizga o‘zbek tilini kompyuterga yo‘naltirilgan modellarini yaratishga imkon beradi, ya‘ni o‘zbek tilini o‘rganish, bilimlarni baholash, o‘zbek tilidagi matnlarni sinab ko‘rish, kompyuterga matnlarni ovozli kiritish, matnlarni tahrirlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “...davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta‘minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish”<sup>1</sup> vazifalari belgilangan hamda mazkur faoliyatlarga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. 2020 - 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari. <https://lex.uz/docs/-5058351>

takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu vazifalarni amalga oshirishda o‘zbek lingvistikasining kompyuterga yo‘naltirilgan modellarini yaratish, hozirgacha o‘zbek kompyuter lingvistikasida mashina tarjimasiga oid tadqiqotlarning yetarli emasligi sababli o‘zbek tilidan xorijiy tilga va aksincha tarjima dasturi uchun o‘zbek tilining lingvistik ma’lumotlar bazasini yaratish zarur va bulardan amalda foydalanish uchun algoritmlar va dasturiy vositalarni yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda elektron tarjimonlarni model va algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, jumladan, elektron tarjimon asoschisi U.Uiver, R.Richens, A.A.Lyapunov, G.G.Belonogonov, V.G.Vasilev, L.A.Grashenko, Yu.N.Marchukva boshqalarning bu boradagi ishlari qiyosiy o‘rganib chiqildi.

Chet el olimlaridan Christopher Manning ishlari asosan sintaktik tahlil, ma’lumotni kiritish va ko‘p tilli tarjima tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib shu jumladan, n-gram modellar, Hidden Markov Models (HMMs), part-of-speech tagging va syntactic parsing kabi masalalar yoritilgan. Bulardan tashqari Danqi Chen, Regina Barzilay, David Sontag, Djoshua Bendjio, Yan Lekun, Martin Djoens kabi mashhur olimlar semantik tushunish, ko‘p tilli tarjima ustida bir qancha ishlar olib bormoqdalar.

Respublikamizda o‘zbek elektron tarjimonlarni yaratish va ular ustida ish olib borish bo‘yicha A.Q.Po‘latov, M.X.Xakimov Sh.A. Nazirov, M. Aripov ko‘p tilli mashina tarjimasini muhitidagi eng dolzarb muammolar, elektron tarjimada rasmiy grammatikaning o‘rni, rasmiy grammatikadan algoritmlarga o‘tishda zarur bo‘lgan mexanizm sifatida tabiiy tillarni matematik modellashtirish masalasi va bu masalani hal qilish uchun yaratilgan so‘z turkumini hosil qilishning matematik modellari ustida ish borganlar. Yosh olimlarimizdan N.Abduraxmanova, S.Shukurov, X.Tursunov, B.Karshiyev, M.Komilovlar o‘zbek tili korpusi, parallel korpuslarning yaratish va boshqa kompyuter lingvistikasining rivojlanishi uchun bir qancha ishlar olib bormoqdalar.

Bu sohadagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon miqyosida elektron tarjimonlarda aynan turkiy tillar oilasiga mansub tillarga oid resurslar juda ham kam, ko‘p tilli tarjimonlarning ish faoliyatini tahlil qilinganda matnlar tarjima qilinganda aniq va sifatli chiqishi past ko‘rsatgichlarni bermoqda. Shundan kelib chiqadiki elektron tarjimonlarni yaratish masalasi dolzarb bo‘lib kelmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № IL-77-8023102181 – sonli “Hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni qamrab olgan “Innovatsion g‘oyalar banki” ni yaratish (2023-2025) mavzularidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** uch tilli o‘zbek, qirg‘iz va qoraqalpoq tillari uchun elektron tarjimani amalga oshiruvchi lingvo-matematik model va algoritmlarni hamda dasturiy majmuani ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

uch tilli elektron tarjimon dasturlarni tahlil qilish va mantiqiy-lingvistik modellar asosida turkiy tillar (o‘zbek, qirg‘iz va qoraqalpoq tillari) elektron lug‘at ma’lumotlar bazasini yaratish;

o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarini leksik, morfologik, sintaktik tahlil qilish, murakkab so‘z birikmalarini hamda gap tuzilmasini hosil qilishning lingvo-matematik modeli va algoritmlarini ishlab chiqish;

sodda va murakkab so‘zlar hamda gap tuzilmasining lingvo-matematik modellari asosida o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillari uchun fe‘l zamonlarini inobatga oluvchi sodda va murakkab so‘zlar hamda gap tuzilmasini hosil qiluvchi jarayonlarning lingvo-matematik modellari va algoritmlari ishlab chiqish;

o‘zbek tilidagi so‘zlarni hosil qilishda fonetik tahlil olib borish hamda ushbu jarayonlarning lingvo-matematik modeli hamda algoritmini ishlab chiqish;

elektron tarjimani baholovchi kombinatsiyalanagan metrikani va uning hisoblash algoritmi ishlab chiqish;

o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillari elektron tarjimoni dasturiy majmuasining funksional modul tuzilmasini ishlab chiqish;

uch tilli o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz matnlarini tarjimasini amalga oshiradigan dasturiy majmua va foydalanuvchi interfeysini yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillaridagi lingvistik korpuslari.

**Tadqiqotning predmeti** turkiy tillar uchun uch tilli elektron tarjimani amalga oshiruvchichi lingvo-matematik modellar, algoritmlar va dasturiy majmuani yaratish hamda elektron tarjimani baholovchi kombinatsiyalangan metrika va uning hisoblash algoritmini yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik va lingvo matematik modellashtirish, hisoblash algoritmlarini modulli tahlil qilish usullaridan hamda elektron tarjimani baholashda gibrid usullardan, zamonaviy dasturlash texnologiyalaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarining leksik, morfologik bazasi asosida o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillari uchun murakkab so‘z birikmalarini hamda gap tuzilmasini hosil qilishning lingvo-matematik modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan;

sodda va murakkab so‘zlar hamda gap tuzilmasini hosil qilishning lingvo-matematik modellari asosida o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarining fonetik tuzilmasi uchun sodda so‘z yasalishi jarayonlarining lingvo-matematik modellari hamda algoritmlari ishlab chiqilgan;

sodda va murakkab so‘zlar hamda gap tuzilmasining lingvo-matematik modellari asosida o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillari uchun fe‘l zamonlarini inobatga oluvchi sodda va murakkab so‘zlar hamda gap tuzilmasini hosil qiluvchi jarayonlarning lingvo-matematik modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan;

o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillari uchun uch tilli elektron lug‘at hamda elektron tarjimon uchun ma‘lumotlar bazasi asosida ilmiy-texnik sohadagi so‘zlarni qidirish va matnlarning o‘zaro tarjimasini aniqlash, o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida elektron tarjimoni baholovchi kombinatsiyalangan metrika va uning hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

uch tilli elektron lug‘at hamda elektron tarjimon ya‘ni lingvo.uz nomli ma‘lumotlar bazasi ishlab chiqilgan;

uch tilli elektron tarjimonni amalga oshirish uchun o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida murakkab so‘zlar va sodda gaplarni yasashning lingvo-matematik modeli ishlab chiqilgan;

uch tilli elektron tarjimonni amalga oshirish uchun o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida fe‘l zamonlari ishtirokida so‘z yasashining lingvo-matematik modeli ishlab chiqilgan;

uch tilli elektron tarjimonni amalga oshirish uchun o‘zbek tilida fonetik tahlil natijalarining lingvo-matematik modeli va algoritmi ishlab chiqilgan;

uch tilli elektron tarjimoni baholashda kombinatsiyalangan metrika uchun hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

dasturiy majmuaning ishlash tamoyili va zaruriy talablar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining ishonchliligi uchta turkiy tillar orasida sodda gaplarni tarjima qilish maxsus dasturiy to‘plamdan foydalangan holda o‘tkazilgan tajribalar natijalarining ishonchliligini isbotlashga asoslangan yakuniy xulosalar bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uch tilli turkiy tillar o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida tarjima jarayonini amalga oshirishda sodda va murakkab so‘zlarni hamda gaplarni tuzishning lingvo-matematik model va algoritmlarini, elektron tarjimoni baholashning kombinatsiyalangan metrika va uning hisoblash algoritmi yaratilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yaratilgan lingvo-matematik model va algoritmlar sodda va murakkab so‘zlarni hamda gaplarni tuzishda ishlatiladigan tegishli dasturiy majmuani ishlab chiqish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan lingvo-matematik modellar, algoritmlar va yaratilgan dasturiy majmua asosida:

o‘zbek tilidagi so‘zlarni morfologik tahlil qiluvchi lingvo-matematik modeli va algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy majmua “The computer workshop” MCHJ tahririyatidagi nashr materiallari va turli hujjatlar matnida morfem so‘zlarni avtomatik qidirish bo‘yicha kompyuter axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 07.07.2025 yil 33-8/4721-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada nashriyot materiallari matnidagi omonim, sinonim, paronim so‘zlarni tahrir qilish, qidirish jarayonlari umumiy ish faoliyatining vaqtga nisbatan hajmini 1-2 barobarga qisqartirishga imkon berdi;

o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida murakkab so‘zlarni yasash algoritmi va lingvo-matematik modeli asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua “Big Makro

World” MChJ tahririyatidagi nashr materiallari va turli hujjatlarni, matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan kamchiliklarni bartraf etishda joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 07.07.2025 yil 33-8/4721-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada taklif qilingan algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua “Big Makro World” tarjimalar byurosida elektron tarjima vaqtini 1-2 barobarga oshishiga imkon berdi;

o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida sodda va murakkab so‘zlar va gaplar hosil qilish, fonetik tahlil, gapda fe‘l zamonlari tahlillarining lingvo-matematik modellari va hisoblash algoritmi asosida yaratilgan dasturiy majmua “SHARQ” nashriyotida ilmiy texnik matnlarni yuqori sifat va kontekstual aniqlik bo‘yicha elektron tarjimini amalga oshirishga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi 07.07.2025 yil 33-8/4721-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ilmiy-texnik matnlardagi sodda va murakkab so‘zlar va gaplarni hosil qilish, fonetik tahlil, gapda fe‘l zamonlarining tahlillari, so‘zlarni qidirish va matnlardagi kontekstual aniqlik bo‘yicha 78,2 % ga erishildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda ilmiy maqola 4 ta, shulardan 1 ta xorijiy va 3 ta respublika jurnallarida nashr qilingan, 1 ta monografiya, scopus bazasida indekslangan konferensiyada 2 ta tezis, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 8 ta ilmiy ishlar, shuningdek EHM uchun dasturiy mahsulot qayd etilganligi haqida 3 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiya hajmi 110 sahifadan tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Elektron tarjimonlarning rivojlanishi va ularning hozirgi holati**” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot usullari tahlili va dissertatsiya mavzularga oid mavjud ishlar tahlili, hamda hozirda mavjud bo‘lgan xalqaro va respublikamizdagi elektron tarjimonlarning qiyosiy tahlili, ahamiyati, roli va muammolari haqida fikrlar bayon etilgan. Shu bilan birga elektron tarjimonlarning rivojlanish bosqichlari, muamoni yechishning asosiy yondashuvlari keltirilgan. Turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarining kelib chiqish tavsifi, sxemasi ko‘rib chiqilgan.


Dissertatsiyaning “Turkiy tillar oilasiga mansub uch tilli elektron tarjima uchun sodda va murakkab soʻzlarni hosil qilishning lingvo-matematik modellari va algoritmlari” deb nomlangan ikkinchi bobida oʻzbek, qoraqalpoq va qirgʻiz tillarida sodda va murakkab soʻzlarni hosil qilishning lingvo-matematik modellari va algoritmlari keltirilgan.

Turkiy tillar oilasi agglyutinativ tillar guruhiga kirganligi sababli soʻz yasaliishi jarayoni ketma-ket va morfemalarning chegarasi aniq koʻrinib turishi bilan boshqa til guruhlaridan ajralib turadi. Buni quyidagicha ifodalaymiz:



1-rasm. Oʻzbek tilida soʻz yasaliishining mantiqiy-lingvistik modeli

Ushbu rasmda oʻzbek tilida soʻz yasaliishining ketma-ketligi ifodalangan boʻlib, oʻzakka old va ort qoʻshimchalar qoʻshilishi asosida soʻz hosil boʻlishining lingvistik koʻrinishi ifodalangan. 1-rasmda tabiiy tilda soʻz yasaliishini formallashtirib elektron tarjimaning birinchi qadamini ifodalaymiz:



2-rasm. Oʻzbek tilida soʻz yasaliish sxemasining formal modeli

Bu yerda 2-rasmga aniqliklar kiritamiz:

$P_x$  – old qoʻshimcha,  $R_i$  - soʻz asosi,  $V_z$  – soʻz yasovchi qoʻshimcha,

$F_y$  – shakl yasovchi qoʻshimcha,  $I_f$  – soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha.

$\oplus$  - birikish belgisi,  $\downarrow$  - kelishi yoki kelmasligi mumkin boʻlgan belgi.

Formal modelni koʻrinishda ifodalaydigan boʻlsak, quyidagini olamiz:

$$W_{uzb} = \oplus \downarrow P_x \oplus R_i \oplus \downarrow V_z \oplus \downarrow F_y \oplus \downarrow I_f \quad (1)$$

Bu yerda,

$W_{uzb}$ - soʻz,  $P_{x1}$ - old qoʻshimcha,

$V_{z1}$ - soʻz yasovchi qoʻshimcha,

$F_{y1}$  - shakl yasovchi qoʻshimcha,

$I_{f1}$ - soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha


(1) Ifodani yoyib chiqadigan boʻlsak, quyidagini olamiz:


$$W_{uzb} = \oplus \downarrow \sum_{x_1=1}^m P_{x_1} \oplus \sum_{i_1=1}^n R_{i_1} \oplus \downarrow \sum_{z_1=1}^d V_{z_1} \oplus \downarrow \sum_{y_1=1}^v F_{y_1} \oplus \downarrow \sum_{f_1=1}^e I_{f_1} \quad (2)$$

Bu yerda,

$W_{uzb}$  –murakkab soʻz,  $P_{x1}$ -old qoʻshimcha,  $R_{i1}$ -soʻzning oʻzagi,  $V_{z1}$ -soʻz yasovchi qoʻshimcha,  $F_{1y}$ -shakl yasovchi qoʻshimcha,  $I_{f1}$ -soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha, i, m, z, d, y, v, f, e - oʻzak va qoʻshimchalar uzunligi,  $\oplus$  birikish belgisi,  $\downarrow$ -kelishi yoki kelmasligi mumkin boʻlgan belgi.

Oʻzbek tilida soʻz yasash jarayonini oʻrganib chiqib, soʻz yasash jarayoni murakkab jaryon boʻlganligini va elektron tarjimaning sifatli chiqishi uchun bu jarayonni chuqur oʻrganib fonetik tahlil bosqichini alohida formallashtirdik. Oʻzbek tilida soʻz yasashida fonetik tahlil asosan 5 ta qoidaga binoan yasashini koʻrib chiqamiz (misollar bilan):






Bu yerda (4)  
W<sub>uzb</sub> – soʻz,  
R<sub>i</sub> – oʻzak,  
H<sub>q</sub> – feʼl oʻzak  
F<sub>y</sub> – shakl yasovchi qoʻshimchasi

Bu yerda (5)  
W<sub>uzb</sub> – soʻz,  
R<sub>i</sub> – oʻzak,  
T<sub>β</sub> – son oʻzak  
F<sub>y</sub> – shakl yasovchi qoʻshimchasi

Oʻzbek tilida koʻp boʻgʻinli soʻzlarda fonetik tahlilning lingvo-matematik modellari (1), (2), (3), (4) va (5) ifodalarda aks ettirilgan. Ishlab chiqilgan lingvo-matematik modellarni umumlashtirib quyidagi blok-sxemasini ifodalaymiz:



3- rasm. Oʻzbek tilida soʻz yasalishida fonetik tahlili blok-sxemasi

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda elektron tarjimini amalga oshirishda aniq va sifatli natijalarga erishish o‘z natijalarini ko‘rsatadi.

Tadqiqot ishimizda qaralayotgan turkiy tillar oilasiga mansub qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida so‘z yasashining lingvo-matematik modellarini ham ishlab chiqamiz. Bunda (1) ifodaga mos ravishda (8) va (9) larni qoraqalpoq tili uchun ishlab chiqamiz.

$$W_{kk} = \oplus \downarrow P_{x_2} \oplus \downarrow R_{i_2} \oplus \downarrow V_{z_2} \oplus \downarrow F_{y_2} \oplus \downarrow I_{f_2} \quad (8)$$

$$W_{kk} = \oplus \downarrow \sum_{x_2=1}^j P_{x_2} \oplus \downarrow \sum_{i_2=1}^n R_{i_2} \oplus \downarrow \sum_{z_2=1}^d V_{z_2} \oplus \downarrow \sum_{y_2=1}^v F_{y_2} \oplus \downarrow \sum_{f_2=1}^e I_{f_2} \quad (9)$$

Bu yerda yuqoridagilar uchun aniqliklar kiritamiz:

$W_{kk}$ -qoraqalpoqcha so‘z,  $R_{i_2}$ – so‘z o‘zagi,  $V_{z_2}$ – so‘z yasovchi qo‘shimcha,  $F_{y_2}$ – shakl yasovchi qo‘shimcha,  $I_{f_2}$ – so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha,  $\oplus$  - bog‘lash belgisi,  $\downarrow$  - kelishi mumkin yoki kelmasligi mumkin,  $x, i, z, y, f$  – morfemalar uzunligi. Bu yerda indeksdagi 2 ikkinchi til deb belgilandi, ya’ni 2 -til qoraqalpoq tili.

Qirg‘iz tili uchun ham (1) ifodani mos ravishda quyidagicha ishlab chiqamiz:

$$W_{kg} = \oplus \downarrow P_{x_3} \oplus \downarrow R_{i_3} \oplus \downarrow V_{z_3} \oplus \downarrow F_{y_3} \oplus \downarrow I_{f_3} \quad (10)$$

$$W_{kg} = \oplus \downarrow \sum_{x_3=1}^m P_{x_3} \oplus \downarrow \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \downarrow \sum_{z_3=1}^d V_{z_3} \oplus \downarrow \sum_{y_3=1}^v F_{y_3} \oplus \downarrow \sum_{f_3=1}^e I_{f_3} \quad (11)$$

Bu yerda yuqoridagilar uchun aniqliklar kiritamiz:

$W_{kg}$ -qirg‘izcha so‘z,  $R_{i_3}$  – so‘z o‘zagi,  $V_{z_3}$ – so‘z yasovchi qo‘shimcha,  $F_{y_3}$  – shakl yasovchi qo‘shimcha,  $I_{f_3}$  – so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha.  $\oplus$  - bog‘lash belgisi,  $\downarrow$  - kelishi mumkin yoki kelmasligi mumkin,  $x, i, z, y, f$  – morfemalar uzunligi

Qirg‘iz tilida murakkab so‘z yasash strukturasi o‘ziga xos tomonlaridan biri bu tarjima vaqtida 1 va 2 shaxs egalik qo‘shimchalari so‘z oldiga chiqadi. Shu yerda aniqlik kiritish uchun ta’rifga yuzlanamiz:

**Ta’rif:** Agar qirg‘iz tilida murakkab so‘z tarjima qilinayotganda (masalan o‘zbekchadan qirg‘izchaga ( $W_{uzb} \rightarrow W_{kg}$ )) so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha ( $I_f$ ) egalik qo‘shimcha sifatida uchrasa ( $\tilde{I}_{f_2}$ ), ya’ni egalik qo‘shimchalarning aynan I va II shaxslaridagi qo‘shimchalari (*-im, -ing, -imiz, -ingiz*) kelsa, u holda qirg‘iz tili tarjimasida egalik qo‘shimchalari *menin, senin, anin, bizdin, siznin, alanin* egalik olmoshi ( $G_t$ )ga aylanib, alohida so‘z birikmasi sifatida so‘zning boshida keladi.

$$\tilde{W}_{kg} = \oplus G_{t_3} \oplus R_{i_3} \oplus \downarrow V_{z_3} \oplus \downarrow F_{y_3} \oplus \downarrow \tilde{I}_f \quad (12)$$

Bu yerda (12)

$\tilde{W}_{kg}$  - tarjimadan keyin qirg‘iz tilidagi murakkab so‘z,  $G_t$  – egalik olmoshi.

Masalan, O‘zbekchada: bog‘+bon+lar+imiz+ning

Qirg'izchada : ***bizdin*** bag+ban+dar+din

Qirg'iz tilida so'z yasaliş ketma-ketliklarni **sonli usulda (sistema ko'rinishida)** keltrib o'tilgan. Murakkab so'zlarni qismlarga bo'lib o'rganilganda qirg'iz tili uchun quyidagi holatlarga duch kelindi:

$$\begin{aligned}
 W_{kg1} &= \sum_{i_3=1}^{\xi} G_{i_3} \oplus \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z_3=1}^d V_{z_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y_3=1}^v F_{y_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f_3=1}^e I_{f_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right. \\
 W_{kg2} &= \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z_3=1}^d V_{z_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y_3=1}^v F_{y_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right. \\
 W_{kg3} &= \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z_3=1}^d V_{z_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f_3=1}^e I_{f_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right. \\
 W_{kg4} &= \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z_3=1}^d V_{z_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y_3=1}^v F_{y_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f_3=1}^e I_{f_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right. \\
 W_{kg5} &= \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right. \\
 W_{kg6} &= \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.
 \end{aligned}$$

$$W_{kg7} = \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_{z_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_{y_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_{f_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_{y_3}(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

$$W_{kg8} = \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

$$W_{kg9} = \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

$$W_{kg10} = \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

$$W_{kg11} = \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

$$W_{kg12} = \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

$$W_{kg13} = \sum_{i=1}^n R_i \oplus \left\{ \begin{array}{l} \sum_{z=1}^d V_z(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{f=1}^e I_f(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \\ \sum_{y=1}^v F_y(l_k) \sim N(\omega) \text{ bu yerda } \omega = l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1} \end{array} \right.$$

Bu yerda  $W_{kg1}, W_{kg2}, W_{kg3}, W_{kg4}, W_{kg5}, W_{kg6}, W_{kg7}, W_{kg8}, W_{kg9}, W_{kg10}, W_{kg11}, W_{kg12}, W_{kg13}$  – murakkab so‘z,  $N(\omega)$  – ixtiyoriy bitta predikat, har bir  $\omega$  so‘zi ikki yoki undan ortiq so‘z birikmasi sifatida ifodalanadi,  $l_0 \wedge l_1 \wedge l_2 \wedge \dots \wedge l_{k-1}$ , bu yerda  $k - 1$  affiks uzunligi.

Turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida gap yasalişining lingvo-matematik modellari xususiylashtirib ishlab chiqildi va ushbu holatlarda fe‘l zamonlari kesimida ham lingvo-matematik modellar ishlab chiqildi:

O‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida fe‘l zamonlari kesimida so‘z yasalişining lingvo-matematik modellari (o‘tgan zamon uchun)

$$W_{uzb} = \oplus \downarrow \sum_{x_1=1}^m P_{x_1} \oplus \sum_{i_1=1}^n R_{i_1} \oplus \downarrow \sum_{w_1=1}^{\tau} B_{w_1} \oplus \downarrow \sum_{c_1=1}^l L_{c_1} \oplus \downarrow \sum_{e_1=1}^o K_{e_1} \oplus \downarrow \sum_{d_1=1}^p O_{d_1} \quad (13)$$

$$W_{qq} = \oplus \downarrow \sum_{x_2=1}^m P_{x_2} \oplus \sum_{i_2=1}^n R_{i_2} \oplus \downarrow \sum_{w_2=1}^{\tau} B_{w_2} \oplus \downarrow \sum_{c_2=1}^l L_{c_2} \oplus \downarrow \sum_{e_2=1}^o K_{e_2} \oplus \downarrow \sum_{d_2=1}^p O_{d_2} \quad (14)$$

$$W_{kg} = \oplus \downarrow \sum_{x_3=1}^m P_{x_3} \oplus \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \downarrow \sum_{w_3=1}^{\tau} B_{w_3} \oplus \downarrow \sum_{c_3=1}^l L_{c_3} \oplus \downarrow \sum_{e_3=1}^o K_{e_3} \oplus \downarrow \sum_{d_3=1}^p O_{d_3} \quad (15)$$

Bu yerda  $P_x$ -old qo‘shimcha,  $R_i$ -o‘zak,  $B_w$ -o‘tgan zamondagi qo‘shimcha,  $L_c$ -1-shaxs-son qo‘shimchasi,  $K_e$ -2-shaxs-son qo‘shimchasi,  $O_d$ -3-shaxs-son qo‘shimchasi

O‘zbek, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida fe‘l zamonlari kesimida hozirgi zamon fe‘l zamonlari qo‘shimchalari asosida so‘z yasalişining lingvo-matematik modellari

$$W_{uzb} = \oplus \downarrow \sum_{x_1=1}^m P_{x_1} \oplus \sum_{i_1=1}^n R_{i_1} \oplus \downarrow \sum_{g_1=1}^b Q_{g_1} \oplus \downarrow \sum_{c_1=1}^l L_{c_1} \oplus \downarrow \sum_{e_1=1}^o K_{e_1} \oplus \downarrow \sum_{d_1=1}^p O_{d_1} \quad (16)$$

$$W_{qq} = \oplus \downarrow \sum_{x_2=1}^m P_{x_2} \oplus \sum_{i_2=1}^n R_{i_2} \oplus \downarrow \sum_{g_2=1}^b Q_{g_2} \oplus \downarrow \sum_{c_2=1}^l L_{c_2} \oplus \downarrow \sum_{e_2=1}^o K_{e_2} \oplus \downarrow \sum_{d_2=1}^p O_{d_2} \quad (17)$$

$$W_{kg} = \oplus \downarrow \sum_{x_3=1}^m P_{x_3} \oplus \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \downarrow \sum_{g_3=1}^b Q_{g_3} \oplus \downarrow \sum_{c_3=1}^l L_{c_3} \oplus \downarrow \sum_{e_3=1}^o K_{e_3} \oplus \downarrow \sum_{d_3=1}^p O_{d_3} \quad (18)$$

Bu yerda  $Q_g$ - hozirgi zamondagi fe‘l qo‘shimchasi

O'zbek, qoraqalpoq va qirg'iz tillarida fe'l zamonlari kesimida kelasi zamon qo'shimchalari asosida so'z yasalishining lingvo-matematik modellari:

$$W_{uzb} = \oplus \downarrow \sum_{x_2=1}^m P_{x_1} \oplus \sum_{i_1=1}^n R_{i_1} \oplus \downarrow \sum_{u_1=1}^s T_{u_1} \oplus \downarrow \sum_{c_1=1}^l L_{c_1} \oplus \downarrow \sum_{e_1=1}^o K_{e_1} \oplus \downarrow \sum_{d_1=1}^p O_{d_1} \quad (19)$$

$$W_{qq} = \oplus \downarrow \sum_{x_2=1}^m P_{x_2} \oplus \sum_{i_2=1}^n R_{i_2} \oplus \downarrow \sum_{u_2=1}^s T_{u_2} \oplus \downarrow \sum_{c_2=1}^l L_{c_2} \oplus \downarrow \sum_{e_2=1}^o K_{e_2} \oplus \downarrow \sum_{d_2=1}^p O_{d_2} \quad (20)$$

$$W_{kg} = \oplus \downarrow \sum_{x_3=1}^m P_{x_3} \oplus \sum_{i_3=1}^n R_{i_3} \oplus \downarrow \sum_{u_3=1}^s T_{u_3} \oplus \downarrow \sum_{c_3=1}^l L_{c_3} \oplus \downarrow \sum_{e_3=1}^o K_{e_3} \oplus \downarrow \sum_{d_3=1}^p O_{d_3} \quad (21)$$

*Bu yerda  $T_u$ - hozirgi zamondagi fe'l qo'shimchasi*

Yuqorida turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek, qoraqalpoq va qirg'iz tillaridagi fe'l zamonlaridagi so'z yasalishining tahlili va bu tahlillar asosida lingvo-matematik modellar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya ishining **“Turkiy tillar oilasiga mansub uch tilli elektron tarjima uchun gaplarni hosil qilishning lingvo-matematik modellari va algoritmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida o'zbek, qoraqalpoq va qirg'iz tillarida gap yasalishining lingvistik tasnifi, formal modellariva lingvo-matematik modellari keltirilgan. O'zbek tilida so'z yasalish bosqichidan keyin gap yasalish bosqichiga o'tiladi. Gap yasalish bosqichida birinchi navbatda gap yasalishi uchun kerak bo'ladigan komponentalarni o'rganib chiqishimiz kerak. Gap yasalishining asosini ega va kesim tashkil qiladi. Bunda ega gapning egasi va kesim esa gapda ish harakatni bildiruvchi komponentalar hisoblanadi. Lingvistik nuqtai nazarda ega va kesimni gapning bosh bo'laklari deb ataladi. Bundan tashqari gapning ikkinchi darajali bo'laklari ham mavjud. Quyidagi 4-rasmda ushbu ma'lumotlarning sxema ko'rinishini ko'rishimiz mumkin:



4-rasm. O'zbek tilida gap asosini tashkil etuvchi bolaklar tasnifi lingvistik tomondan

O'zbek tilida so'z yasalishi bosqichidan keyin gap ( $S_{uzbsimple}$ ) yasalishiga o'tadigan bo'lsak, o'zbek tili grammatikasi juda boy ekanligiga amin bo'lamiz.

O'zbek tilida gaplar tuzilishiga ko'ra sodda gap va qo'shma gapga ajratiladi.

Sodda gap tuzilishiga ko'ra:

1. S o d d a y i g' i q g a p,

2. Sodda yoyiq gaplarga ajratiladi (4-rasm). Bunday tasniflashda ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etish-etmasligi e'tiborga olinadi.



5-rasm. O‘zbek tilida sodda gaplarning lingvistik tomondan turlari

Faqat bosh bo‘laklar (ega va kesim)dan tuzilgan gap sodda yig‘iq gap deyiladi. Sodda yig‘iq gaplarga misollarni quyidagicha ko‘rishimiz mumkin:

$\underbrace{\text{Axborot}}_{\text{ega}} \underbrace{\text{keltirildi}}_{\text{kesim}}, \underbrace{\text{Kompyuter}}_{\text{ega}} \underbrace{\text{ishlayapti}}_{\text{kesim}}. \dots$

Ushbu misolga izoh kiritadigan bo‘lsak, o‘zbek tilida gap yasaliş strukturasi har doim ega birinchi navbatda, kesim esa egadan keyin gapning oxirida keladi. Bu tartib qat‘iy hisoblanadi.

Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirokida tuzilgan gap sodda yoyiq gap deyiladi. Masalan:

$\underbrace{\text{Bu yilgi}}_{\text{aniqlovchi}} \underbrace{\text{seminar}}_{\text{ega}} \underbrace{\text{yanvar oyining boshida}}_{\text{hol}} \underbrace{\text{o‘tdi}}_{\text{kesim}}$

$\underbrace{\text{Jismoniy mashqlar}}_{\text{aniqlovchi}} \underbrace{\text{organizmni}}_{\text{ega}} \underbrace{\text{to‘ldiruvchi}}_{\text{aniqlovchi}} \underbrace{\text{har xil kasalliklardan}}_{\text{to‘ldiruvchi}} \underbrace{\text{saqlaydi}}_{\text{kesim}}$

O‘zbek tilida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirokida gapning tuzilishi sxemasi.

Yuqorida berilgan sxemalar asosida o‘zbek tilida sodda gaplarni hosil qilishning lingvo-matematik modellari ishlab chiqildi.

$$S_{uzbsimple1} = E_1(x_i, \dots, x_n) \cup K_1(x_i, \dots, x_n) \quad (22)$$

